

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	39
Xazratov Abror Panjiyevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	44
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA'SIRI.....	51
Ro'zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	64
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI

Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: Sohibjon.salimbayev@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2026–2027-yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining amaliyotga joriy etilishi hamda uning O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Qo'riqlash departamenti tizimida mehnat shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash va qorovullik bo'linmalari ishchi-xizmatchilarga tatbiq etilishining huquqiy va iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, YAMMT, Soliq qo'mitasi va "Ijtimoiy sug'urta" axborot tizimlari bilan bog'liq amaliy muammolar hamda ichki moliyaviy nazoratni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qo'riqlash departamenti, davlat ijtimoiy sug'urtasi, YAMMT, ijtimoiy nafaqa, ichki moliyaviy nazorat, kasallik nafaqasi, homiladorlik nafaqasi, ijtimoiy soliq, proaktiv tizim.

Abstract. This article analyzes the legal and economic aspects of implementing the state social insurance system in the Republic of Uzbekistan during 2026–2027, as well as its application within the Security Department under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan for employees of departmental militarized security and guard units working under employment contracts. The study also examines practical issues related to the YAMMT, Tax Committee, and "Social Insurance" information systems and develops proposals for improving internal financial control.

Keywords: security Department, state social insurance, YAMMT, social benefits, internal financial control, temporary disability benefit, maternity benefit, social tax, proactive system.

Аннотация. В данной статье проанализированы правовые и экономические аспекты внедрения системы государственного социального страхования в 2026–2027 годах в Республике Узбекистан, а также её применения в системе Департамента охраны при МВД Республики Узбекистан в отношении работников ведомственной военизированной охраны и сторожевых подразделений, осуществляющих деятельность на основании трудового договора. Кроме того, рассмотрены практические проблемы, связанные с информационными системами ЯММТ, Налогового комитета и модуля «Социальное страхование», а также разработаны предложения по совершенствованию внутреннего финансового контроля.

Ключевые слова: департамент охраны, государственное социальное страхование, ЯММТ, социальное пособие, внутренний финансовый контроль, пособие по временной нетрудоспособности, пособие по беременности и родам, социальный налог, проактивная система.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq, O'zbekiston — ijtimoiy davlat hisoblanadi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi fuqarolarning mehnat faoliyati davomida yuzaga keladigan asosiy ijtimoiy xatarlar — homiladorlik va tug'ish, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, ishsizlik kabi holatlarda davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoyani ta'minlashni nazarda tutadi.

Mazkur konstitutsiyaviy tamoyillar xalqaro mehnat huquqi normalari bilan hamohang bo'lib, xususan,



Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT):

“Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari to’g’risida”gi 102-son Konvensiyasi

“Onalikni muhofaza qilish to’g’risida”gi 183-son

Konvensiyasi talablariga muvofiq, homiladorlik, tug’ish va kasallik bo’yicha nafaqalar ijtimoiy sug’urta mexanizmlari orqali moliyalashtirilishi lozimligi belgilangan.

Amaliyotda esa 2025-yilgacha O’zbekistonda, ayniqsa xususiy va xo’jalik yurituvchi subyektlarda, ijtimoiy nafaqalar asosan ish beruvchilar hisobidan to’lab kelinib, bu holat:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar tannarxining oshishiga;
- korxonalar raqobatbardoshligining pasayishiga;
- ish beruvchilarning ijtimoiy majburiyatlarni ortiqcha moliyaviy yuk sifatida qabul qilishiga olib kelgan.

Natijada, ijtimoiy sug’urta tizimi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, Qo’riqlash departamenti kabi xo’jalik tashkilotlari uchun iqtisodiy jihatdan jozibador bo’lmay qolgan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 29-oktabr kuni ijtimoiy sug’urta tizimini takomillashtirish bo’yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimotda ta’kidlanganidek, xususiy sektorda band bo’lgan aholining barchasiga ham homiladorlik, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik va ishdan bo’shsh bo’yicha nafaqalar to’liq to’lab berilmayapti. Bu holat ijtimoiy himoya mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko’rsatadi.

Taqdimot davomida aholini ijtimoiy nafaqalar bilan qamrab olish darajasini kengaytirish, milliy ijtimoiy sug’urta tizimini xalqaro hujjatlarga uyg’unlashtirish hamda ish beruvchilar zimmasidagi moliyaviy yuklamani kamaytirishga qaratilgan tizimli islohot takliflari ko’rib chiqildi.

Rasmiy band bo’lgan barcha shaxslarga nafaqalar bosqichma-bosqich Ijtimoiy sug’urta jamg’armasi tomonidan to’lanishi yo’lga qo’yiladi. 2026-yildan boshlab ayollarga homiladorlik nafaqasi, 2026-yilning ikkinchi yarmidan esa vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari to’lab boriladi.

Yangi tizimning asosiy maqsadi ayollar va ishchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bilan birga, rasmiy mehnat munosabatlarini rag’batlantirish ekani ta’kidlandi.

Prezident tomonidan ushbu takliflar ma’qullanib, ijtimoiy sug’urta sohasini raqamlashtirish, tizim shaffofligini ta’minlash, nafaqalarni proaktiv tarzda tayinlash va to’lash bo’yicha aniq topshiriqlar berildi.

Mazkur tashabbuslar natijasida 2025-yilda davlat ijtimoiy sug’urta tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan qonunchilik va idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar paketi qabul qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy sug’urta tizimi bo’yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy himoya, sug’urta badallari, sug’urta hodisalari hamda aholi daromadlarining barqarorligini ta’minlash masalalari markaziy o’rinni egallaydi. O’zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida ijtimoiy sug’urta aholining og’ir hayotiy vaziyatlarda daromadsiz qolishining oldini oluvchi mexanizm, mehnat bozori barqarorligini ta’minlovchi iqtisodiy instrument hamda davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlarda majburiy va ixtiyoriy sug’urta tizimlari, sug’urta staji, nafaqa turlarini hisoblash metodikasi, raqamlashtirish jarayonlari va proaktiv to’lov mexanizmlarining joriy etilishi alohida yo’nalish sifatida o’rganilgan. So’nggi yillarda davlat ijtimoiy sug’urtasi tizimini raqamlashtirish, jamg’armalar mablag’larining shaffofligini ta’minlash va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish masalalari ilmiy muhokamalarning asosiy yo’nalishiga aylangan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, ijtimoiy sug’urta tizimining amaliyotga tatbiqi, ayniqsa, idoralarda ishlovchi ishchi-xizmatchilar misolida yetarlicha chuqur va tizimli o’rganilmagan. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Davlat ijtimoiy sug’urtasi tizimini isloh qilish bo’yicha normativ-huquqiy baza izchil shakllantirilgan bo’lib, ushbu jarayon O’zbekiston Respublikasining 2025-yil 9-dekabrda “Davlat ijtimoiy sug’urtasi to’g’risida”gi O’RQ-1101-son Qonuni bilan yangi bosqichga ko’tarildi. Mazkur Qonun bilan davlat ijtimoiy sug’urtasining maqsadi, prinsiplari va subyektlari belgilandi, sug’urta hodisalari hamda nafaqa turlari aniqlandi, sug’urta badallarini hisoblash va to’lash tartibi joriy etildi hamda Davlat ijtimoiy sug’urta jamg’armasi faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrda PF-206-son Farmoni bilan davlat ijtimoiy sug’urtasi tizimini takomillashtirish, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, norasmiy bandlikni legallashtirish hamda to’lovlarni sug’urta badallariga mutanosib ravishda hisoblash mexanizmlari belgilandi. Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat ijtimoiy sug’urtasining yangi tizimi joriy etilishi belgilandi.



Mazkur Respublikasi hujjatlarning Vazirlar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi 2025-yil 17-dekabrda qabul qilingan. Qarori qabul qilib, unga muvofiq homiladorlik va tug'ish hamda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari proaktiv shaklda tayinlanishi, to'lovlarning bevosita tijorat banklari orqali amalga oshirilishi hamda "Yagona milliy mehnat tizimi" orqali barcha turdagi ta'tillarning majburiy ro'yxatga olinishi belgilandi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining shaffofligini ta'minlash, nafaqa to'lovlarning manzilligini oshirish hamda ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda qabul qilingan "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RBQ-1105-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirib, unda davlat maqsadli jamg'armalari, jumladan, Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasining daromad va xarajatlari alohida ilovalar orqali tasdiqlandi. Bu holat davlat ijtimoiy sug'urtasining moliyaviy mustaqilligini qonun darajasida mustahkamladi. Ushbu Qonunning 3-ilovasida Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasining moliyaviy ko'rsatkichlari 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval. Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi

Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	
Daromadlar prognozi	1 853 746,2
shu jumladan:	
Ijtimoiy soliq tushumlari	1 041 247,7
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlar	742 498,5
Boshqa daromadlar	70 000,0
Davlat budjetidan transfertlar	1 500 000,0
Xarajatlar	3 353 746,2
shu jumladan:	
Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini to'lash	2 489 300,0
Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasini to'lash	864 446,2

Ushbu raqamlarni quyidagi diagrammada batafsil ko'rsatish mumkin¹.

Bu esa 2026-yilda ijtimoiy sug'urta tizimi asosan ayollar va ishchi-xizmatchilar ijtimoiy himoyasiga qaratilganini ko'rsatadi.

Davlat budjeti qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda qabul qilingan "2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-388-son². Qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan davlat ijtimoiy sug'urta tizimining amaliy moliyaviy mexanizmi belgilab berildi.

Mazkur qaror bilan ijtimoiy soliq tushumlarini taqsimlash aniq foizlarda belgilandi.

Qarorga ko'ra, 2026-yil 1-yanvardan ijtimoiy soliq tushumlari quyidagicha taqsimlanadi:

Boshqa to'lovchilar (xo'jalik tashkilotlari) bo'yicha:

- Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga — 95,9 foiz;
- Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga — 2,5 foiz;
- Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasiga — 0,8 foiz;
- O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga — 0,8 foiz.

Qo'riqlash departamenti xo'jalik tashkiloti bo'lganligi sababli, unga "boshqa to'lovchilar" tartibi tatbiq etiladi. Ya'ni, to'langan ijtimoiy soliqning 2,5 foizi bevosita Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga yo'naltiriladi.

Mazkur maqolada davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimini Qo'riqlash departamenti tizimida tatbiq etishning huquqiy va iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi.

¹ Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.12.2025 yildagi PQ-388-son <https://lex.uz/docs/-7959569>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar va yondashuvlardan foydalanilgan: normativ-huquqiy tahlil metodi, taqqoslash (komparativ) metodi, analitik metod, diagramma va vizual tahlil.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan amaliy tahlillar Qo'riqlash departamenti tizimida, ya'ni Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi Qo'riqlash xizmatida mehnat shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash va qorovullik bo'linmalari ishchi-xizmatchilariga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar hajmi yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatdi.

Amaliy ma'lumotlarga ko'ra, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi bo'yicha 2024-yilda 352 981 521 so'm mablag' sarflangan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 534 410 314 so'mni tashkil etgan. Natijada mazkur turdagi to'lovlar 181 428 793 so'mga oshib, o'sish sur'ati 51,4 foizni tashkil etgan. Bu o'sish xodimlar sonining ortishi, kasallanish holatlari hamda o'rtacha ish haqi miqdorining oshishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, homiladorlik va tug'ish nafaqalari bo'yicha o'sish yanada yuqori sur'atda kuzatilgan. Jumladan, 2024-yilda 50 224 317 so'm mablag' sarflangan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 144 745 713 so'mga yetgan. Natijada ushbu turdagi ijtimoiy to'lovlar 94 521 396 so'mga oshib, o'sish sur'ati 188,2 foizni tashkil etgan, ya'ni qariyb 2,9 baravar o'sish qayd etilgan (2-jadval).

2-jadval. Tahlil natijalarining umumlashtirilgan ko'rinishi va ijtimoiy nafaqalar hajmining o'sish dinamikasi.

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	Farqi	O'sish dinamikasi foizda
Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi	352 981 521	534 410 314	181 428 793	51,4%
Homiladorlik va tug'ish nafaqasi	50 224 317	144 745 713	94 521 396	188,2 %
Jami	403 205 838	679 156 027	275 950 189	68,4%

Mazkur jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar ijtimoiy to'lovlarning tashkilot zimmasidagi moliyaviy yuki yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu tendensiyalar iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, ijtimoiy nafaqalarning ish beruvchi hisobidan qoplanib borishi o'zini o'zi moliyalashtiruvchi tashkilotlar uchun uzoq muddatda barqaror mexanizm emasligi ayon bo'ladi. Sababi, ijtimoiy majburiyatlar hajmining muntazam oshib borishi operatsion xarajatlar tarkibida nomutanosib yuklama yuzaga keltiradi hamda moliyaviy resurslarning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan chalg'ishiga sabab bo'ladi. Natijada tashkilotning investitsion imkoniyatlari, ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, 2026–2027-yillarda davlat ijtimoiy sug'urta tizimining yangi modelga o'tkazilishi Qo'riqlash departamenti uchun muhim institutsional o'zgarish sifatida baholanadi. Xususan, homiladorlik va tug'ish nafaqalari 2026-yil 1-yanvardan, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari 2026-yil 1-iyuldan, ishdan bo'sh nafaqalari esa 2027-yildan boshlab Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilishi ish beruvchining ijtimoiy majburiyatlarini bosqichma-bosqich kamaytiradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, 2024–2025-yillarda ijtimoiy nafaqalar uchun 679 156 027 so'mgacha yetgan yillik moliyaviy yuk yangi tizim joriy etilishi natijasida to'liq markazlashtirilib, ish beruvchi zimmasidan chiqariladi. Bu esa Toshkent shahar IIBB huzuridagi Qo'riqlash xizmati uchun yiliga o'rtacha 600–700 mln so'm miqdoridagi mablag'larning tejalishiga olib kelishi mumkin.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda muhim amaliy masalalardan biri kadrlar bo'limlari tomonidan xodimlarning mehnat shartnomalari va tegishli buyruqlarining "Yagona milliy mehnat tizimi" (YAMMT) ga o'z vaqtida kiritilmasligi, shuningdek, moliya bo'limlari tomonidan ish haqi, daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisobotlarining soliq organlariga elektron reyestr shaklida to'liq topshirilmasligi bilan bog'liqdir.

Mazkur holatning e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-dekabrda 796-son³. Qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 7-, 8-, 12-, 13- va 14-bandlariga muvofiq davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar proaktiv (avtomatik) shaklda, ya'ni xodimning murojaatisiz "Ijtimoiy sug'urta" axborot moduli orqali tayinlanadi.

Bunda axborot moduli quyidagi axborot bazalaridan avtomatik ma'lumot oladi:
YAMMT orqali — mehnat shartnomasi, ish staji, bandlik va ta'til ma'lumotlari;
Soliq qo'mitasi axborot tizimlari orqali — ish haqi, daromadlar va ijtimoiy soliq to'lovlari;


3 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.2025 yildagi O'RB-1101-son <https://lex.uz/docs/-7886679>

Yagona tibbiy axborot tizimi orqali — elektron kasallik varaqasi;

Xalq banki tizimi orqali — jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlar⁴.

Mazkur ma'lumotlar bazasida xodimga oid ma'lumotlar to'liq shakllanmagan taqdirda, Nizomning 14-bandiga asosan "Ijtimoiy sug'urta" axborot moduli tomonidan davlat ijtimoiy sug'urtasi to'lovlari avtomatik ravishda rad etiladi.

Bu holat amaliyotda nafaqa to'lovlari rasmilashtirish jarayonida uzilishlar yuzaga kelishi, xodimlarning ijtimoiy himoya choralaridan o'z vaqtida foydalana olmasligi hamda tashkilotda moliyaviy va huquqiy favvohliklarning ortishiga olib kelishi mumkin. Mazkur ehtimoliy oqibatlarining sxematik ifodasi 3-rasm⁵da keltirilgan.



3-rasm. Ehtimoliy oqibatlarining sxematik ifodasi

3-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, YAMMT, soliq organlari va boshqa axborot tizimlarida xodimga oid ma'lumotlarning to'liq shakllanmasligi davlat ijtimoiy sug'urta to'lovlari avtomatik ravishda rad etilishiga olib keladi. Natijada xodimlarning ijtimoiy himoyasi zaiflashadi, mehnat nizolari va da'vo arizalari ko'payishi ehtimoli yuzaga keladi, shuningdek, tashkilotda moliyaviy va huquqiy risklar yuzaga keladi. Shu bois kadrlar va moliya bo'limlari tomonidan elektron ma'lumotlar bazalarini o'z vaqtida va to'liq yuritish ustidan ichki nazoratni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qo'riqlash departamentining Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi Qo'riqlash xizmatida ijtimoiy nafaqalar bo'yicha moliyaviy yuk 2024–2025-yillarda 403,2 mln so'mdan 679,1 mln so'mga oshib, 68,4 foizga ortgan. Bu esa ijtimoiy to'lovlarning ish beruvchi zimmasida qolishi o'zini o'zi moliyalashtiruvchi tashkilotlar uchun qo'shimcha moliyaviy bosimni yuzaga keltirishini ko'rsatadi.

2026-yildan davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining markazlashtirilgan tartibda joriy etilishi natijasida Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi Qo'riqlash xizmatida yiliga o'rtacha 600–700 mln so'm miqdoridagi moliyaviy yuk kamayishi kutiladi. Bu esa tashkilotning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va asosiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini oshirdi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining samaradorligi YAMMT, soliq va "Ijtimoiy sug'urta" axborot tizimlariga ma'lumotlarning o'z vaqtida va to'liq kiritilishiga bevosita bog'liqdir. Ma'lumotlarning kiritilmasligi nafaqalarning avtomatik rad etilishiga, xodimlarning ijtimoiy huquqlari buzilishiga, mehnat nizolari hamda ichki moliyaviy nazorat risklarining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.05.2026 yildagi 239-son <https://lex.uz/docs/8187969>

5 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Qo'riqlash departamenti, Toshkent shahar IIBB huzuridagi Qo'riqlash xizmati hamda hududiy IIBlar huzuridagi Qo'riqlash xizmatlarida YAMMT, Soliq qo'mitasi, AT "Xalq banki" va "Ijtimoiy sug'urta" axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan avtomatik taqqoslash hamda proaktiv pre-check nazorat modulini joriy etish zarur. Mazkur modul orqali xodimlarning mehnat shartnomasi, ish staji, ta'til ma'lumotlari, ish haqi va ijtimoiy soliq hisobotlari, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya badallari bo'yicha ma'lumotlar har oy avtomatik ravishda o'zaro solishtirilib, aniqlangan tafovutlar asosida risk indikatorlari va "Ijtimoiy sug'urta risk reyestri" shakllantirilishi lozim. Bu esa davlat ijtimoiy sug'urta to'lovlarining avtomatik rad etilish xavfini kamaytirish, mavjud xatoliklarni oldindan aniqlash hamda xodimlarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, Qo'riqlash departamenti tizimi bo'ysunuvidagi qo'riqlash xizmatlari tomonidan YAMMTga mehnat shartnomalari va tegishli buyruqlarni o'z vaqtida kiritmaslik, ish haqi va ijtimoiy soliq hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik hamda AT "Xalq banki" tizimida pensiya badallari bo'yicha tafovutlarga yo'l qo'yilgan holatlar yuzasidan kadrlar va moliya bo'limlari mas'ul xodimlarining mas'ul xodimlarning xizmat vazifalari bo'yicha javobgarlik doirasini aniq belgilash, shuningdek, ichki moliyaviy nazorat doirasida rejali va rejadan tashqari taftishlar hamda avtomatik monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa hisobot intizomini mustahkamlash, elektron ma'lumotlar bazalarining ishonchligini ta'minlash, nafaqa to'lovlarining asossiz rad etilishining oldini olish hamda Qo'riqlash departamenti tizimida ichki moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2025-yil 9-dekabrda O'RB-1101-son. <https://lex.uz/docs/-7886679>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2025-yil 25-dekabrda O'RB-1105-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7949060>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2025-yil 3-noyabrda PF-206-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7813695>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-son. <https://lex.uz/docs/-7959569>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2025-yil 17-dekabrda 796-son. <https://lex.uz/docs/-7926684>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2026-yil 12-mayda 239-son. <https://lex.uz/docs/8187969>
8. https://uza.uz/oz/posts/qonunchiligimiz-ijtimoiy-taminotning-minimal-meyorlari-togrisidagi-konvensiyaga-muvofiqlashtiriladi_530407
9. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi 183-son Konvensiyasi (2000-yil). <https://lex.uz/docs/-2747578>
10. "Ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi". <https://president.uz/oz/lists/view/8603>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100